

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ZAMONAVIY DIREKTORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI OSHIRISH

Aliyeva Ozoda Latipovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 8-son

DMTT direktori

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan barcha direktorlarning kasbiy sifatlari, hamda boshqaruv tamoyillari haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье описаны профессиональные качества и принципы управления всех руководителей, работающих в организациях дошкольного образования.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, kasbiy kompetentlik, direktorlar, bolalar, boshqaruv, ta'lim yizimi.

Ключевые слова: дошкольные образовательные организации, профессиональная компетентность, директора, дети, менеджмент, учебная программа.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-sonli Qarorining mazmun-mohiyatini tushuntirish maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlariga o'quv-seminar grafigi ishlab chiqildi.

Unga muvofiq, 2019 yilning 17-19 iyun kunlari shahar va tumanlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 391-sonli Qarorining mazmun-mohiyatini kengroq tushuntirildi, barcha tizimdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'quv seminarida boshqarma mutaxassislari tomonidan taqdimot qilinib, quyidagicha ma'lumotlar berib o'tildi.

Endilikda Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qilishi;

Endilikda quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanishi;

- Pedagogika kengashi;
- Kuzatuv kengashi.

Мақтабгача та'лим ташкилотида та'лим-тарбия жарайонини ташкил этишнинг асосий шакли о'yin hisoblanishi;

Bitta xonada ko'pi bilan 3 ta qisqa muddatli guruh faoliyatini uchta smenada tashkil etish yo'l qo'yilishi. Nodavlat maqtabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi va boshqa ko'plab Qarordagi yangiliklar tizimdagi barcha shahar va tumanlardagi MTB bo'lim xodimlariga, maqtabgacha ta'lim tashkilot rahbarlariga va uslubchilariga etkazildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari faoliyatini me'yorlashtiruvchi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "O'zbekiston Respublikasida maqtabgacha ta'lim to'g'risida Nizom", "Maqtabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari" kabi qator davlat hujjatlari qabul qilindi. Ta'lim jarayonini tubdan isloh etishda bolalarga ta'lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl, metod va uslublari, shuningdek, maqtabgacha pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari qamrab olinmoqda. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasi asosida farzandlar tarbiyasi va ta'lim olishlari, ularning qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi. "O'zbekiston Respublikasida maqtabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq bola maqtabgacha ta'limni oilada, maqtabgacha ta'lim tashkilotlarida oladi. **Maqtabgacha ta'lim esa o'z navbatida quyidagi vazifalarni ko'zda tutgan holda ish olib boradi:**

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- Bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- Bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- Bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- Bolalarni maktabda o'qishga tayyorlash.



Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash maqtabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan direktorlarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir. Hozirga qadar

maqtabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy faoliyati pedagog va psixologlarning tadqiqot predmeti bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar natijalari maqtabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogining o'ziga xosliklari,

yaratuvchanlik, insonparvarlik, ijodiylik, jamoada ishlay olishi kabilarda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishida tayanch vazifani direktorning qo'yilgan talablarga qanchalik darajada javob bera olishi belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, eng avvalo, bolaning kelajagi, taqdiri uchun yuksak ma'suliyatni to'la anglab yetishi lozim. Faqatgina maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishini muhim qadriyat ekanligini tushunibgina qolmasdan, balki bolaning rivojlanish qonuniyatlariga doir bilimlarni ham egallab borishi lozim. Ana shunday qonuniyatlardan biri bolaning jismoniy va psixik rivojlanishining uni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liqligidir. Mazkur qonuniyat o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining quyidagi 2 ta muhim funksiyasini belgilib beradi: Ma'lumki, yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari asosiy o'rin tutadi. Pedagog, ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

Albatta, dasturning amaliyotga to'liq joriy etilishida kamchiliklar kuzatilmoqda. Shunga ko'ra seminar-treninglar, ilmiy-amaliy anjumanlarning ko'proq o'tkazilishi ishni yengillashtiradi.

Mazkur dastur bolani:

-  vatanparvarlik;
-  faol hayotiy jarayonda o'z o'rnini topish;
-  turli xil hayotiy holatlarda mustaqil qaror chiqarish;
-  milliy-an'anaviy meroslarimizga hurmat ruhida tarbiyalanishini maqsad qilgan.

Qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, MTTlar infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etildi. Ushbu komissiya maktabgacha ta'lim sohasidagi qonunchilikni undagi bo'shliqlarni, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarni yuzaga keltiruvchi normalarni aniqlash nuqtai nazaridan tahlil qilish, sohada davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan, zarur infratuzilmani yaratishga, xodimlarning mehnatini moddiy rag'batlantirishga, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash va malakasini oshirishga, xususiyl sektorini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash

hamda kompleks o'rganish kabi bir qator dolzarb vazifalarni bajarishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablarini qayta ko'rib chiqish, bolalarni qabul qilishning amaldagi tartibini, vakolatli davlat organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi holatini tanqidiy o'rganish ham bevosita komissiya zimmasiga yuklandi.

Boshqaruv faoliyatida boshqaruvchi shaxs kasbiy sifatlar bilan shaxsiy sifatlarga ham ega bo'lishi lozim. Masalan:

- ✚ Maqsadni aniq belgilay olishi;
 - ✚ Boshqalarni diqqat bilan tinglashi;
 - ✚ Xolisona baholay olishlik, samimiy va bag'rikenglik;
 - ✚ Chiqaradigan qarorlari odilona bo'lishi va shu orqali xodimlarni joy-joyiga qo'ya olishi;
 - ✚ O'z imkoniyatlari va xodimlarning imkoniyatlaridan to'la foydalanish;
 - ✚ Muloqotda aniq va lo'nda so'lay olishi;
 - ✚ Jamoa tashkil etish va unda uyg'un muhitni ushlab tura olish qobiliyatiga7
- ham ega bo'lishlari lozim.

Yuqorida aytib o'tilganidek rahbar mustaqil fikrga ega bo'lishi, topqir va tashabbuskor bolishligi talab etiladi. Chunki, ayrim hollarda xodimlar xato qilsa ham, rahbar aniq, ibratli fikrlar aytib, to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi, zarur hollarda yaxshi bajarilgan ishlarni taqdirlashi mustaqil rahbar qiyofasini belgilovchi muhim psixologik xususiyatdir.

Rahbarning yana bir sifati o'z-o'ziga nisbatan talabchan bo'lishi, o'z-o'zini baholash va shu asosda boshqalarga nisbatan ham munosabatini tashkil etishi lozim. Boshliq sifatida madaniyatli bo'lishi va buni muomalasida, boshqalar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda ko'rinishi lozim. Rahbarning muomala madaniyati: o'z o'rnida, joyida, aniq, tiniq, qisqa, lo'nda, samimiy so'zlashi va shu bilan birga suhbatdoshni tinglay olish qobiliyatidan iborat bo'lishi kerak. Ko'p hollarda rahbar bilan xodimlar o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy ziddiyatlar tinglay olmaslik yoki tushuna olmaslikdan kelib chiqadi. Boshqalarning o'rniga o'zini qo'yish, uning his-kechinmalarini tushunish, empatiya (hamdardlik) hissi, so'zlashuvlarda sabr-toqatlilik muloqot madaniyatining muhim tomoni ekanligi ma'lumdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.— T.: "O'zbekiston", 2023.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 noyabrdagi 44/25-qarori bilan qabul qilingan. Nyu-York, 1989 yil 20 noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola

huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rluk ishlatishning olidini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3827-Qarori

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

6. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.